

METODIK ISHLARDA SEMINARLAR VA SEMINAR- PRAKTIKUMLARNING AHAMIYATI

**Botirov Shonazar Askar o‘gli-Jizzax davlat pedagogika instituti
Gulmurodova Guljaxon-Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich
talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida seminar va seminar praktikumlar metodik ishlarni tashkil etishdagi ahamiyati va shu qatorda metodik ishlarning hozirgi kundagi ahamiyati haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: seminar praktikumlar, interfaol metodlar, illyustratsiya, dialog, munozara, instruktiv-direktiv hujjatlar

Ta’lim muassasalarida seminar va seminar praktikumlar metodik ishlarni tashkil etishning samarali vositasi hisoblanadi. Agar seminar yaxshi tayyorlangan bo‘lsa (mavzusi o‘qituvchilar ehtiyojlari asosida tanlangan, batafsil reja ishlab chiqilgan, ish vaqt optimal belgilangan, o‘qituvchilarning seminar jarayonidagi vazifalari, ishtiroki aniqdashtirilgan bo‘lsa va h.k.), uning natijalari, albatta, yuqori bo‘ladi.

Seminarlar va seminar-praktikumlar o‘qituvchilarning professional mahoratini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham, ular amaliyotda keng qo‘llaniladi. Ta’lim muassasasining ish rejasida seminar-praktikum mavzulari belgilanadi, avgust kengashlarida keng muhokama qilinib, batafsil reja ishlab chiqilib, tasdiqlanadi. Birinchi mashg‘ulotdayoq mazkur rejani o‘qituvchilar javobini olishni kutayotgan konkret savollar bilan to‘ldirishni taklif etish mumkin. Seminar 2-3 va undan ham ko‘p mashg‘ulotlardan tashkil topishi mumkin.¹ Mazkur seminarlarda interfaol metodlardan keng foydalanib, mavjud muammolar yechimi amalga oshiriladi, yangi adabiyotlar bilan tanishtiriladi, ilg‘or tajribalar

¹O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2011-yil 4-iyuldagagi “Uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 144-sonli buyrug‘I bilan tasdiqlangan nizomlar.

bilan almashiladi, amaliy mashg‘ulotlar bajariladi, hamkasb ishi kuzatiladi va h.k.

Keyingi paytlarda pedagoglar bilan treninglar o‘tkazish amaliyatga keng joriy etilmoqda. Ularning asosiy maqsadi – pedagogika va psixologiyaning eng yangi yutuqlari bilan tanishtirishdan iboratdir. Bunday treninglarni o‘tkazish uning tashkilotchilaridan yuqori darajadagi malakani talab etadi. Odatda, treningni tayyorlash va o‘tkazish maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan xodim yoki muassasa rahbari, pedagog va psixolog zimmasiga yuklatiladi.

Trening — bu shaxsning turli psixik sifatlarini (diqqat, xotira, iroda va h.k.) mashq qildirish, o‘zini-o‘zi psixofiziologik holatini boshqarish, ma’lumotlarni qabul qilish va qayta ishslash, mehiatni tashkil etishning turli usullarini o‘zlashtirish bo‘yicha maxsus tanlangan mashqlar tizimidir.

Shunga o‘xshagan mashqlarning muhim ahamiyati — o‘zining xulqiga, yurish-turishiga chetdan baho olish, shuningdek, o‘zining xarakterini o‘zi baholashidir.

Seminarlarda pedagoglarning faolligini oshirish uchun nimalarga ko‘proq e’tibor berish lozim?

Mazkur masala, ayniqsa, bugungi, texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda alohida ahamiyat kasb etadi. Quyida biz ta’lim muassasasida metodik tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazish jarayonida pedagoglar faolligini oshirishning ayrim metodlarini keltirib o‘tamiz.

Eng yaxshi pedagoglarga o‘quvchilar bilan ishslash amaliyotidan konkret holatni tavsiya qilish maqsadga muvofiqli. Pedagog xohlagan sharoitda to‘g‘ri qaror qabul qilishni bilishi lozim. Mazkur metod taklif etilgan qator holatlarni chuqur tahlil etib, asoslangan qaror qabul qilish imkonini beradi. Bu esa, o‘z o‘rnida, taklif etilgan holatni har tomonlama va chuqur tahlil qilishni, taqqoslashni hamda qabul qilingan qarorni asoslashni talab etadi. Konkret holatlarning to‘rtta turi mavjudligi ma’lum².

1. Illyustratsiya — holatlarda amaliyotdagi oddiy holatlar ta’riflannb, shu

² O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2011-yil 4-iyuldaggi “Uzluksiz metodik xizmat ko’rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 144-sonli buyrug‘I bilan tasdiqlangan nizomlar.

yerning o‘zida yechimi beriladi.

2. Mashqlarni yechish holatlarda ayrim mashqlarning (konspekt rejasini ishlab chiqish, o‘quvchilar bilim, ko‘nikma, malakalari bilan bog’liq jadvallarni to‘ldirish va boshqalar) yechimi taklif etiladi.

3. Baholash holatlarda muammo hal etilgan bo‘lib, pedagogdan qabul qilingan qarorning tahlilini berib, uni asoslash va baholash talab etiladi.

4. Holatlarning eng murakkabi — bu muammo holatidir. Bunday holatda, amaliyotda mavjud bo‘lgan konkret muammo keltirilib, uning yechimini berish so‘raladi.

Dialog, munozara bizning davrimizning haqiqiy alomati bo‘lib qoldi. Ammo mavjud masalalarni jamoa bo‘lib muhokama etish san’atini har kim ham egallay olmaydi.

Dialog — bu ikki va undan ortiq insonlarning ma’lum bir mavzu bo‘yicha bir-birini to‘ldiradigan suhbat, ochiq muloqoti. Mazkur jarayonda suhbatning har bir ishtirokchisi o‘zining fikrini bayon qiladi.

Munozara — muayyan muammo, bahsli masalani ochiq muhokama etish jarayonidir. Bu bahsning yumshoq ko‘rinishi bo‘lib, turli qarashlardan hammani qanoatlantira oladigan yagona pozitsiyaga kelishni nazarda tutadi. Munozarada faqat tanqid emas, balki o‘z fikrini ifoda etish, mavjud muammolar yechimi yo‘llarini ko‘rsatish muhim hisoblanadi.

Ikki qarama-qarshi fikrning muhokamasi. Rahbar muhokama uchun bitta muammoga oid ikki xil qarashni taklif etadi. Bunda pedagog o‘z fikrini bayon etishi va asoslashi lozim.

Amaliy ko‘nikmalarga o‘qitish. Mazkur metod juda samarali hisoblanadi. Ammo uni oldindan chuqur o‘ylab, qaysi pedagogga topshirishni his qilish lozim bo‘ladi. Davomiyligi bo‘yicha u ko‘p vaqtini (5 daqiqagacha) egallamasligi darkor. Eng yaxshisi, amaliy ish tajribadan o‘rgatuvchi elementni berish maqsadga muvofiqdir.

«O‘qituvchi ish kuni» imitatsiya metodi. Pedagog oldida turgan maqsad va vazifalar shakllantirilib, unga ma’lum vaqt davomida o‘zining ish kunini

modellashtirish tavsiya etiladi. Oxirida rahbar taklif etilgan har bir modelning muhokamasini tashkil etadi, ijobjiy jihatlarini tahlil etadi hamda kamchiliklarini ko‘rsatib o‘tadi.

Pedagogik krossvordlarni yechishi o‘qituvchilarning ma’lum mavzu bo‘yicha bilimlarini aniqlashga yordam beradi, ularning dunyoqarashini rivojlantiradi, natijada, ish sifatiga ijobjiy ta’sir qiladi. Ularni jamoa bilan ishlaganda hamda individual metodik tadbirlarda qo‘llash tavsiya etiladi.

Instruktiv-direktiv hujjatlar bilan ishlash.

Pedagoglarga oldindan u yoki bu hujjat bilan tanishish, o‘z ishida qo‘llash, ma’lum bir yo‘nalish bo‘yicha ish rejasini ishlab chiqish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish so‘raladi. Mazkur ishni har kim mustaqil bajaradi, pedagogik kengashda esa mavjud bitta muammoning yechimiga bo‘lgan turli qarashlar muhokama etiladi.

O‘quvchilar xulqi, ijodining tahlili. Rahbar hujjatlarni tayyorlaydi. Bular disk, fleshkadagi yozuvlar, o‘quvchilar ijodidan namunalar, ularning xulqi tahlili bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilar material bilan tanishadilar, tahlil qiladilar, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakasi, rivojlanganlik darajasiga baho beradilar, mazkur o‘quvchilarning sinf rahbarlariga, ota-onalariga yordam sifatida tegishli takliflarni shakllantirib, tavsiya etadilar.

Yagona metodik mavzu bo‘yicha ishlarni qanday olib borish kerak?

Ta’lim muassasasi ma’muriyati tegishli o‘quv yili uchun o‘zining salohiyatidan kelib chiqqan holda yagona metodik mavzuni tanlaydi. Agar yagona metodik mavzu har bir pedagogni qiziqtira olsa, u jamoani jipslashtirish omili sifatida xizmat qiladi. Yagona mavzuni tanlashda hisobga olish lozim bo‘lgan qator talablar mavjud. Mavzu pedagoglar ehtiyojlari va qiziqishlari, ular erishgan natijalardan kelib chiqqan hamda ta’lim muassasasi uchun muhim va dolzarb bo‘lishi talab etiladi.

Yagona metodik mavzu, shuningdek, olib borilayotgan konkret ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tavsiyalari hamda boshqa ta’lim muassasalari jamoalari tomonidan to‘plangan amaliy tajribalarni ham albatta hisobga olgan holda tanlashi

maqsadga muvofiqdir. Bu talablar «velosiped ixtiro etishni» rad etib, jamoa faoliyatiga sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan ilg‘or pedagogik tajribalarni joriy etishni nazarda tutadi. Ammo bu jamoa tomonidan tajriba-sinov ishlari o‘tkazilib, mualliflik dasturlarini, tegishli metodik ishlanmalarni joriy etish amaliyotini hech ham rad etmaydi. Amaliyot, shuningdek, metodik mavzuni tanlashda istiqbolni hisobga olish yaxshi samara berishini isbotlaydi. Ta’kidlash joizki, yagona metodik mavzu muassasada olib borilayotgan hamma metodik ishlar formalari hamda pedagoglar mustaqil ishlari mavzulari bilan uyg‘un holda bo‘lishi talab etiladi.

Jamoaning yagona metodik mavzu ustida olib borgan ishlarini ta’lim muassasasini rivojlantirish mualliflik modeli, tajribalar asosida ishlab chiqilgan metodik ishlanmalar, tavsiyalar tashkil qiladi³.

Faollashtirish o‘yinlari deganda nimani tushunamiz?

Faollashtirish o‘yinlari — bu ishtirokchilarning o‘zлари tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar va tartib asosida turli holatlarda boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishga asos bo‘ladigan imitatsiya metodidir. «O‘yin» atamasining o‘zi ko‘p tillarda hazil, faoliyat, jarayon kabi tushunchalarga to‘g‘ri keladi hamda ushbu jarayonning ijobjiy quvonarli lahzalar bilan aloqadorligidan darak beradi. Ishchanlik o‘yinlarining metodik ishlar tizimida paydo bo‘lishi aynan shular bilan izohlanadi. Ishchanlik o‘yinlari qiziqishni orttiradi, yuqori faollikni amalga oshiradi, real pedagogik muammolarni hal etishda ko‘nikmalarni takomillashtiradi.

Umuman olganda, ishchanlik o‘yinlari, ularning aniq holatlarning ko‘p qirrali jarayonlari tahlili bilan joriy etilishi nazariya bilan amaliyotning uyg‘unligini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Alimova, Q. (2021). FARZAND TARBIYALASHDA OTA-ONALARING ASOSIY XATOLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном*

³ Ahliddinov R.SH “Maktabni boshqarish san‘ati” – “Fan” -2006.

- образовании*, 1(1). извлечено от
<https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/594>
2. Alimova, Q. (2021). УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. Джизакское инновационное образование, 1(1). извлечено от
<https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>
3. Alimova, Q. (2021). ZAMONAVIY MENEJER FAOLIYATI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от
<https://hp.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/920>
4. Nazarov, T. (2021). TA'LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(4). извлечено от <https://phys-tech.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4423>
5. Alimova, Q. (2021). TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH. Jizzax innovatsion ta'limi , 1 (1).
[Https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564](https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564)
6. Аблякимова, Р., & Alimova, Q. (2021). TA'LIMDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA KORPORATIV BOSHQARUV. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1535>
7. Alimova, K. O. K., Toshboyeva, K. M. K., & Ungarov, B. T. U. (2021). TODAY'S STUDENT IS TOMORROW'S LEADER. Scientific progress, 2(2), 308-310. <https://cyberleninka.ru/article/n/todays-student-is-tomorrows-leader>
8. Alimova, Q. (2021). PSYCHOLOGICAL PROPERTIES OF THE RICHBAR PERSON IN THE MANAGEMENT. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(3). извлечено от
<https://hp.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3651>
9. Isankulova , M. ., & Alimova, . Q. . (2021). YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRILISH MASALALARI. Научно-

просветительский журнал "Наставник", (1). извлечено от <https://phys-tech.jspi.uz/index.php/science/article/view/1180>

10. Ablyakimova, R. (2020). VIEW AND THEORIES ON FACTORS INFLUENCING MANAGEMENT DECISION-MAKING. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 11(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1052.

11. Botirov, B. F., Usmonov, J., &Ablyakimova, R. I. (2021). Organization Of Tourism Services In Uzbekistan Based On The Combination Of National Styles And Modern Innovations. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES, 53–57

12. Аблякимова, Р., &Alimova, Q. (2021). TA'LIMDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA KORPORATIV BOSHQARUV. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1535>

13. Аблякимова, Р., &Usmonov, A. (2021). Умутъалиммактабнисамаралибошқаришдаянгичаёндошув. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1537>

14. Аблякимова, Р. (2021). НОДАВЛАТ МАКТАБЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1536>.

15. Аблякимова, Р. (2021). ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1527>.

16. Аблякимова, Р. (2021). О'ЗБЕКИСТОНДА IT SOHASINING LOKOMOTIVI. *Zamonaviyta 'limda Pedagogika Va Psixologiya Fanlari*, 1(3). Retrieved from <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4085>
17. Ablyakimova, R. I. (2022). THE ROLE OF WOMEN IN GOVERNMENT AND SOCIETY IN UZBEKISTAN. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(2), 1-9.
18. Nazarov, Т. (2021). КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ - ИДЕАЛЬНАЯ ОСНОВА ДЛЯ БУДУЩИХ ПРОФЕССИЙ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://fll.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/459>
19. Toshboyeva, Н. (2021). ZAMONAVIY MENEJER VA YETAKCHI. *Mир исследований*, 1(1). извлечено от <https://presedu.jspi.uz/index.php/journal/article/view/937>
20. Usmonov, A. (2021). IQTISODIY SAVODXONLIK VA IQTISODIY TA'LIMNING TARBIYAVIY AHAMIYATI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1326>
21. B. F. Botirov, J. Usmonov, & R. I. Ablyakimova. (2021). Organization Of Tourism Services In Uzbekistan Based On The Combination Of National Styles And Modern Innovations . INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES, 53–57. Retrieved from <https://usajournalshub.com/conferences/index.php/iscrc/article/view/66>
22. Botirov, S. (2022). Рақамли иқтисодиётни шакллантириш жараёнида илмий инновацион фаолиятни шакллантириш . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4793>
23. Siddiqova, S. (2021). ЎҚУВ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Джизакское инновационное образование*, 1(1).

24. Siddiqova, S. (2022). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МУСТАҚИЛ ФИКРЛОВЧИ, ИЖОДКОР ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(3).
25. Siddiqova, S. K. (2021). INCREASE THE CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS COGNITION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Theoretical & Applied Science*, (2), 24-26.
26. Siddiqova, S. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БИЛИШ, ИЖОДИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(3).
27. Siddiqova, S. (2021). ЎҚУВ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Джизакское инновационное образование*, 1(1).
28. Isoqulov, M. (2022). ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ МАҶРИФАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ВЕРТУАЛ СТЕНДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5620>
29. Isoqulov, M. (2022). ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ ОНГИДА ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ КУРАША ОЛИШ ТАҒАКУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ОИЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4746>
30. Soibnazarova, M. (2022). YOSHLAR TARBIYASIDA ABDURAHMON JOMIYNNIG ASARLARIDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5634>

31. Sanakulova, Z. A., & Soibnazarova, M. N. (2017). Modular training as a pedagogical technology. Pedagogicheskoe masterstvo: X Mezhdunarodnaya nauchnaya konferentsiya, Moskva, iyun'2017
32. Soibnazarova, M. (2022). ЁШ АВЛОДНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯСИДА МУТАФАККИРЛАРНИНГ ФИКРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5573>
33. Санакулова, З. А., & Соибназарова, М. Н. (2017). Модульное обучение как педагогическая технология. In Педагогическое мастерство (pp. 20-22).
34. Санакулова, З. А., Соибназарова, М. Н., Бойтураева, Н. И., & Юлдашев, Ш. Э. (2016). Психологические условия формирования навыков самостоятельного мышления у учащихся. Молодой ученый, (8), 1022-1024.
35. Axmedova, S. (2022). MAKTABLARDA O'QITISH TIZIMINING TA'LIM OLUVCHILAR YOSHI BILAN BOG'LQLIGI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5879>
36. Axmedova, S. (2022). SAMARALI RAHBARLIKKA XOS XISLATLAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5102>
37. Axmedova, S. (2022). TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING MA'NAVIY QIYOFASI, MADANIYATI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4904>